O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SAYFULLAYEVA MAFTUXA ZAFRULLAYEVNA

BIOLOGIK POPULYATSIYA MASALASINI NODIVERGENT NOCHIZIQLI PARABOLIK TENGLAMA ORQALI SONLI MODELLASHTIRISH

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

UDK: 519.957

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SAYFULLAYEVA MAFTUXA ZAFRULLAYEVNA

BIOLOGIK POPULYATSIYA MASALASINI NODIVERGENT NOCHIZIQLI PARABOLIK TENGLAMA ORQALI SONLI MODELLASHTIRISH

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under number B2018.1.PhD/T589.

The dissertation has been prepared at National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, Russian, English (resume)) on the website (www.ik-fizmat.nuu.uz) and the "ZiyoNet" Information and educational portal (www.ziyonet.uz.)

Scintific superviser:	**Aripov Mersaid Mirsiddiqovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
Official opponents:	**Ganixujayev Rasul Nabiyevich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
	Muhamediyeva Dildora Kabilovna Doctor of Technical Sciences
Leading organization:	**Samarkand State University**

Defense will take place "12" 07 2023 at 15 30 at the meeting of Scientific Council number DSc.03/30.12.2019.T.01.02 at National University of Uzbekistan. (Address: University str. 4, Almazar area, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Ph.: (+99871) 227-12-24, fax: (+99871) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertation is possible to review in Information-resourse centre at National University of Uzbekistan (is registered №98). (Address: University str. 4, Almazar area, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Ph.: (+99871) 246-02-24).

Abstract of dissertation sent out on "21" 06 2023 year
(Mailing report № 1 on "05" 06 2023 year)

R.D.Aloyev
Deputy chairman of Scientific Council awarding scientific degrees, d.ph.-m.s., professor

Z. R. Rakhmonov
Scientific secretary of Scientific Council on award of scientific degrees, d.ph.-m.s.

B.F.Abduraximov
Chairman of scientific Seminar under Scientific Council on award scientific degrees, d.ph.-m.s., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijasida vujudga keladigan muammolar turli jarayonlarning nochiziqli matematik modellarini tadqiq qilishga olib kelinadi. Bunday modellarning asosini parabolik tipidagi nochiziqli nodivergent holidagi differensial tenglamalar tashkil etadi. Biologik populyatsiya jarayonlarini tadqiq qilishda sonli parametrlarning keng diapazonida jarayonning kechishini tasvirlovchi nochiziqli modellarni ishlab chiqish amaliy matematika va matematik modellashtirish kabi sohalardagi tadqiqotlarning obyektidir. Nochiziqli matematik modellarning sifat xossalarini tadqiq etish, sonli yechish sxemalari, yechish usullari, algoritmlar va dasturiy ta’minotini yaratish ilmiy tadqiqotlarning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda nochiziqli nodivergent parabolik tenglamalar bilan tasvirlangan matematik modellarning turli yangi xususiyatlarini manba, yutilish, o‘zgaruvchan zichlik va tezligi vaqtga bog‘liq bo‘lgan konvektiv ko‘chish ta’sirida populyatsiya tarqalish tezligining chekliligi, fazoviy lokallashishi, populyatsiyaning yo‘qolishi va boshqa yangi sifat xossalarini o‘rganish dolzarbdir. Nochiziqli biologik populyatsiya masalalarida ularni ifodalovchi parabolik tenglamalarning buziluvchanligi sababli, sonli yechishga alohida yondashuvni talab qiladi va yechimlarning dinamik o‘zgarishini aniqlovchi kompyuterlashtirilgan tizimini ishlab chiqish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy hamda amaliy tatbiqiga ega bo‘lgan matematik fizika va mexanika sohalaridagi masalalarning sonli hamda analitik yechish usullarini ishlab chiqish kabi dolzarb yo‘nalishlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, nodivergent parabolik tenglamalar bilan tasvirlangan nochiziqli biologik populyatsiya masalalarini matematik modellashtirish va samarali taqribiy yechish usullarini ishlab chiqishda muayyan natijalarga erishildi. “Funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” kabi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlar darajasidagi ilmiy izlanishlar olib borish O‘zR FA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi[1]. Qaror ijrosini ta’minlashda respublikamizdagi ilmiy tadqiqotlarning, xususan, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va sonli usullardan foydalanish sohasidagi olib borilayotgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasidagi oliy ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlovchi, zamonaviy bilimlar va yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalari asosida ijtimoiy sohani va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli qarori.

Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PQ-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PQ-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari belgilangan masalalarni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta’lim va fan sohalari vakillari bilan 2019-yil 24-may kuni O‘zbekiston Milliy universitetida bo‘lib o‘tgan uchrashuvida bergan ko‘rsatmalari hamda mazkur faoliyat bilan bog‘liq boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Nochiziqli nodivergent parabolik tenglama bilan tasvirlanuvchi jarayonlarning matematik modelini o‘rganish natijasida populyatsiya tarqalishining rivojlanish dinamikasi ilk bor N.V.Belotelov tomonidan ko‘rib chiqilgan. Keyinchalik O.A.Oleynik, A.S.Kalashnikovlarning ishlarida, shuningdek, A.A.Samarskiy, B.Knerr va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Nochiziqli chegaraviy masalalarni hal qilish doimo katta qiyinchiliklar bilan birga kechadi, chunki ularni tahliliy jihatdan faqat kamdan-kam holatlarda hal qilish mumkin, yechimlarning yangi xossalarini belgilash uchun esa o‘ta chuqur tadqiqotlar zarur. Shuning uchun yechim xossalarini o‘rganish uchun turli aniq va taqribiy usullarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. A.A.Samarskiy, S.P.Kurdyumov, V.A.Galaktionov, A.S.Kalashnikov, L.K.Martinson, R.Kershner, G.I.Barenblatt, B.F.Knerr, Chen Sinfu, Yu.V.Si, Chon-Shengo, Kombe Ismail, Kusano Takasi, Tomoyuki Tanigava, S.N.Dimova, M.Aripov, A.T.Xaydarov, Sh.A.Sa’dullayeva, F.A.Kabiljanova, Z.R.Rahmonov va boshqalarning ishlarida parametrlarning muayyan qiymatlariga mos keluvchi avtomodel yechimlar muhim rol o‘ynashini ko‘rsatildi.

O‘zbekistonda turli jarayonlarni tasvirlovchi parabolik turdagi nochiziqli chegaraviy masalalarni avtomodel yoki taqribiy avtomodel yondoshuv asosida sonli analitik tadqiq qilish M.Aripov, A.Xaydarov, Sh.Sadullayeva, A.Matyakubov, J.Muxammadiyev, D.Muxamediyeva, F.Kabiljanova, Z.Rahmonov va boshqa olimlarning ishlarida keltirilgan avtomodel yondashuvlar muhim rol o‘ynashi asoslangan.

Nochiziqli masalalar yechimini tadqiq qilishning keng tarqalgan usullaridan biri, nochiziqli parabolik tenglamalar yechimlarining xossalarini o‘rganish imkoniyatini kengaytiradigan, yechimlarni taqqoslash usulidir. Chunki biologiya, kimyo, fizika, mexanika, sotsiologiyadagi nochiziqli jarayonlarni tasvirlovchi parabolik tenglamaning aniq yechimini topishga nisbatan unga mos keluvchi differensial tengsizlikning yechimini topish osonroq kechadi. Tadqiqotning samarali usullaridan biri nochiziqli parchalash usuli va etalon tenglamalar usuli bilan avtomodel yechimlarni topishdir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № OT-F4-30 “Konvektiv ko‘chishga, o‘zgaruvchan zichlikka, manba yoki yutilishga ega ikki karra nochiziqli kross-sistema yechimlarining xususiyatlarini o‘rganish” ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zgaruvchan zichlik, tezligi vaqtga bog‘liq bo‘lgan konvektiv ko‘chish, manba va yutilish ta’sirida nodivergent ko‘rinishdagi ikki karra nochiziqli parabolik tipdagi tenglamalar bilan ifodalanuvchi nochiziqli muhitda biologik populyatsiya jarayonlarining matematik modellarini ishlab chiqish, sonli-analitik tadqiq qilish usullari, algoritmlari va dasturlar majmuini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ikki karra nochiziqli divergent holidagi parabolik tenglama bilan tasvirlangan biologik populyatsiya jarayonlarining konvektiv ko‘chish, nochiziqli manba yoki yutilish ta’sirida nochiziqli muhitda yangi effektlarni aniqlash;

ikki karra nochiziqli nodivergent holidagi parabolik tenglamalar bilan tasvirlangan biologik populyatsiya jarayonlarining konvektiv ko‘chish, nochiziqli manba yoki yutilish ta’sirida matematik modellarining sifat xossalarini o‘rnatish va asoslash;

o‘zgaruvchan zichlikka ega bo‘lgan muhitda ikki karra nochiziqli parabolik tenglama bilan tasvirlangan biologik populyatsiya jarayonlarining matematik modelini sonli yechimlarini qurish;

nodivergent buziluvchan parabolik tenglamalar bilan ifodalangan kuchli yutilish va zichlik ta’siri ostida biologik populyatsiya, virus tarqalishi jarayonlarida aniq yechim topish, yangi nochiziqli effektlarni aniqlash va yechim baholarini olish;

konvektiv ko‘chish, o‘zgaruvchan zichlik, nochiziqli manba yoki yutilish ta’sirini hisobga olgan holda ikki karra nochiziqli divergent va nodivergent parabolik tenglamalar bilan tasvirlangan nochiziqli masalalarni sonli yechish uchun sonli sxemalar, yechish usullari va algoritmlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida konvektiv ko‘chish va o‘zgaruvchan zichlik ta’siri ostida ikki karra nochiziqli divergent hamda nodivergent holidagi parabolik tenglamalar bilan tasvirlangan biologik populyatsiya va virus tarqalishi jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmeti. Konvektiv ko‘chish va o‘zgaruvchan zichlikni hisobga olgan holda divergent hamda nodivergent parabolik tenglamalar bilan tasvirlangan nochiziqli matematik modellarning yangi sifat xossalarini o‘rganish; ba’zi aniq yechimlarni qurish, yechim va front baholarini olish; sonli sxemalar, yechish usullari, algoritmlarini va boshlang‘ich yaqinlashishni topish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Mazkur ishda nochiziqli parchalash algoritmi, etalon tenglamalar usullari, iteratsiya va haydash usullari, yechimlarni taqqoslash usuli, avtomodel yoki taqribiy avtomodel va asimptotik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

konvektiv ko‘chish, nochiziqli kuchli yutilishga ega ikki karra nochiziqli divergent turdagi biologik populyatsiya tenglamasi uchun Koshi masalasining yechimlari taqqoslash prinsipi asosida topilgan va front baholari olingan;

o‘zgaruvchan zichlikka ega biologik populyatsiya masalasi uchun Fujita tipidagi global yechimga ega bo‘lish shartlari, to‘lqin tarqalish ko‘rinishidagi yechim tezligini baholash, umumlashgan yechimlar va front baholari kabi nochiziqli matematik modelning sifat xossalari asoslangan;

biologik populyatsiya tarqalishi tezligining chekliligi, fazoviy lokallashishi va populyatsiyaning cheklangan vaqt ichida yo‘q bo‘lishi kabi nochiziqli effektlari taqqoslash prinsipi hamda chiziqsiz ajratish usullari yordamida aniqlangan;

biologik populyatsiya jarayonida kritik va ikki karrali kritik holatlarda o‘zgaruvchan zichlikka ega masalalar uchun aniq umumlashgan yechimlar topilgan, virus tarqalishi masalasining yechimi bahosi olingan va sonli tadqiq etish uchun algoritm, hisoblash sxemasi va yechish usuli taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

biologik populyatsiya nochiziqli parabolik tenglamalarini sonli yechish uchun iteratsion jarayon ishlab chiqilgan;

nochiziqli parabolik tenglamalar bilan tavsiflangan nochiziqli jarayonlar evolyutsiyasini vizual ravishda kuzatishga imkon beradigan dasturiy kompleks yaratilgan;

biologik populyatsiya jarayonining nochiziqli matematik modellari bilan bog‘liq, cheklangan vaqt ichida virus tarqalishi chekli tezligining yangi nochiziqli ta’siri o‘rnatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qat’iy isbotlangan teoremalar bilan izohlanadi. Topilgan yechimlar va erkin chegaralar hamda asimptotik formulalarda keltirilgan baholardan foydalanib, sonli tahlil qilindi. Bu tahlil natijalari ilmiy ishda qo‘llanilgan differensial tenglamalarni yechish usullari va chiziqsiz effektlarni saqlagan holda avtomodel tahlilni qo‘llash uslubining ishonchliligi hamda samaradorligini tasdiqlaydi. Dissertatsiyada olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi hisoblash tajribasi texnologiyasi yordamida asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuv yetarli darajada universal hisoblanadi va biologik populyatsiya masalasida konvektiv ko‘chish tezligi vaqtga bog‘liq bo‘lgan, ikki karra nochiziqli parabolik tenglamalar bilan ifodalangan jarayonlarni matematik modellashtirishda va matematik fizika tenglamalari nazariyasini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ularni nochiziqli issiqlik o‘tkazuvchanlik, filtratsiya va diffuziya, biologik populyatsiya va viruslarning tarqalishi jarayonlarining matematik modellashtirilishiga nisbatan qo‘llash mumkinligidir hamda ulardan matematik modellashtirishning boshqa nochiziqli masalalarini hal qilishda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bir jinsli va bir jinsli bo‘lmagan muhitda ishlab chiqilgan sonli sxemalar va tadqiqot usullari asosida:

nodivergent ko‘rinishdagi parabolik tenglama bilan ifodalanuvchi nochiziqli

Koshi masalasini yechish uchun nochiziqli parchalash algoritmi asosida olingan avtomodel va taqribiy avtomodel yechimlari, bunday masalalarni global yechimi uchun olingan baho, o‘zgaruvchan zichlikka ega biologik populyatsiya masalasi uchun global yechimga ega bo‘lish shartlari, to‘lqin tarqalish tezligini baholash, umumlashgan yechimlar va front baholari kabi nochiziqli nodivergent parabolik tenglamalarini yechish uchun ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotidan BV-M-F4-004 “Funksional jadvallar algebrasi asosida murakkab tizimlar boshqarishini algoritmlashtirish prinsiplarini ishlab chiqish” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida parabolik tipdagi nochiziqli tenglamalarni sonli yechishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 15-dekabrdagi 89-03-5280-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, nodivergent ko‘rinishdagi parabolik tenglama bilan ifodalanuvchi nochiziqli Koshi masalasini yechishda taklif etilgan hisoblash sxemasi samarali ekanligini asoslash imkonini bergan;

kuchli yutilish ta’sirida nodivergent ko‘rinishdagi parabolik tenglama bilan ifodalanuvchi nochiziqli Koshi masalasini yechishda taklif etilgan hisoblash sxemasi BV-Atex-2018(399+487) “Ikki komponentli muhitda diffuzion jarayonlarni sonli modellashtirish uchun amaliy dasturlar paketini yaratish” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida parabolik tipidagi nochiziqli nodivergent masalalarning yechimlari dinamikasini vizuallashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 5-fevraldagi 89-03-681-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarni qo‘llash turli xil muhitlarda nodivergent ko‘rinishdagi parabolik tenglama bilan ifodalanuvchi nochiziqli Koshi masalasining umumlashgan yechimlarni sonli yechish va tahlil qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 13 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 10 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 tasi xorijiy (3 ta Scopus) va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan. Shuningdek, EHM uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida 2 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 101 betdan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika ilm va texnikasi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari kartografik tadqiqoti keltirilgan, muammoning o‘rganilganlik darjasi berilgan, tadqiqotning maqsadi, masalalari, obyekti va predmeti tasvirlangan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy etilganligi hamda nashr etilgan maqolalar va dissertasiyaning tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Nochiziqli biologik populyatsiya jarayonlarining matematik modeli”** deb nomlangan birinchi bobida masalaning qo‘yilishi tahlil qilingan, shuningdek, dissertatsiya mavzusiga tegishli tadqiqotning qisqacha sharhi, shuningdek, natijalarni kelgusida bayon qilish uchun zarur bo‘lgan ayrim yordamchi tasdiqlar va ta’riflar keltirilgan.

Mazkur bobda quyidagi nodivergent ko‘rinishdagi kvazichiziqli parabolik tenglama Koshi masalasi

$$Lu = -u_t + u^n \nabla\left(u^{m-1}\left|\nabla u^k\right|^{p-2}\nabla u\right) + div(v(t)u) + \gamma(t)u + \varepsilon b(t)u^q = 0 \qquad (1)$$

$$u\big|_{t=0} = u_0(x) \ge 0, \quad x \in R^N \qquad (2)$$

umumlashgan yechimlarining xossalari ko‘rib chiqilgan. Bu yerda n, m, k, p – nochiziqli muhitdagi musbat haqiqiy sonlar, $u = u(t,x) \ge 0$, $t > 0$ vaqtdagi $x \in R^N$ nuqtada populyatsiya zichligi, $v(t)$ – konvektiv ko‘chish tezligi, $\gamma(t)$ – populyatsiyaning chiziqli o‘sish koeffitsiyenti, $b(t)u^q$ – populyatsiyaning o‘sish quvvati $(\varepsilon = +1)$ yoki yo‘qolib ketish holati $(\varepsilon = -1)$; $u_0(x)$ – boshlang‘ich vaqtdagi populyatsiya zichligi.

(1) tenglama uchun $Q = \{(t,x) : t > 0, x \in R^N\}$ sohada Koshi masalasi ko‘rilgan.

1.1-paragrafda kuchli yutilishga ega bo‘lgan biologic populyatsiya tenglamasi tadqiqotining ayrim natijalari keltirilgan.

1.2-paragrafda ishda qo‘llanilgan yordamchi tasdiqlar, ta’riflar va yechimlarining solishtirish teoremasi berilgan.

1.3-paragrafda quyidagi Kolmogorov Fisher tipidagi biologik populyatsiya nochiziqli modelining

$$\begin{gathered}\frac{\partial u}{\partial t} = u^n \nabla\left(u^{m-1}\left|\nabla u^k\right|^{p-2}\nabla u\right) + \gamma u\left(1 - u^\beta\right), \\ u\big|_{t=0} = u_0(x) \ge 0, \; x \in R\end{gathered} \qquad (3)$$

xossalari o‘rganilgan. Bu yerda $n, m, k \ge 1, p > 2, \beta > 0$ – berilgan sonli parametrlar, $u = u(t,x) \ge 0$ – izlanayotgan yechim, bu yerda $u(t,x)$, $t > 0$ vaqtda $x \in R$ nuqtadagi muhitning populyatsiya zichligi.

(3) masala yechimlarining turli sifat xossalarini tadqiq qilish $m = 1,\ p = 2,\ \beta = 1,\ n = 0$ holida diploid populyatsiyadagi maqbul genning tarqalishi stoxastik modelining deterministik versiyasi sifatida Fisher tomonidan taklif etilgan edi, bundan oldinroq boshqa mualliflar tomonidan $\gamma(t) = 1,\ p=2$ yoki $m = 1, n = 0$ bo‘lgandagi tenglamaning sonli yechimi ham taklif etilgan.

Dissertatsiyaning **“Konvektiv ko‘chish ta’siri ostida biologik populyatsiya jarayonini matematik modellashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida $q > 1$ holida va kuchli yutilish holi $(0 < q < 1)$ uchun yechim mavjudligining global shartlari, fizik ma’noga ega umumlashgan yechimlar va erkin chegara uchun baholar olingan. Bunda $q = 1$ bo‘lganda, vaqtga bog‘liq bo‘lgan konvektiv ko‘chish tezligi, fazoviy lokalizatsiya nochiziqli effektlariga va erkin chegara uchun “devor” hodisasiga olib kelishi ko‘rsatib berilgan.

Nochiziqli muhitning sonli parametrlari qiymatiga qarab populyatsiya taqsimotining fazoviy lokalizatsiyasi masalasi ko‘rib chiqilgan.

2.1. paragrafda nochizqli nodivergent ko‘rinishdagi Koshi masalasining global hal qilinishi masalalari hamda masala yechimining sifat xossalari tadqiq qilingan, aniq yechim topilgan, yechimning chekli tezlikka ega bo‘lishi va lokallashish sharti olingan. Tenglama parametrlarining turli qiymatlari uchun vizualizatsiyaga ega bo‘lgan sonli eksperimentlar o‘tkazilgan. Jarayonlarni tasvirlovchi matematik modelni quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$\frac{\partial u}{\partial t} = u^n \nabla\left(u^{m-1}\left|\nabla u^k\right|^{p-2}\nabla u\right) + div(v(t)u) - b(t)u^q, \qquad (4)$$
$$u(0,x) = u_0(x),\ (t>0, x\in R^N)$$

bu yerda n,m,k,p – musbat xaqiqiy sonlar, $u = u(t,x) \ge 0$ – izlanayotgan yechim, bu yerda $u(t,x) - x\in R^N$ nuqtada $t>0$ vaqtdagi populyatsiya zichligi.

$$q = \frac{p-[k(p-2)+n+m-1]}{p-1} \qquad (5)$$

bo‘lganda, (4) masalani radial-simmetrik ko‘rininishga keltirish yo‘li bilan, aniq yechim topilgan. Buning uchun quyidagi almashtirish

$$u(t,x) = e^{\int_0^t v(y)dy} w(t,|\xi| = r),\ \xi = \int_0^t v(y)dy - x,\ |\xi| = \sum\nolimits_1^N\left(\int_0^t v(y)dy - x_i\right)^{1/2},\ x\in R^N$$

orqali (4) tenglama radial-simmetrik ko‘rinishga keltiriladi:

$$\frac{\partial w}{\partial t} = w^n \xi^{1-s}\frac{\partial}{\partial \xi}\left(\xi^{s-1}w^{m-1}\left|\frac{\partial w^k}{\partial \xi}\right|^{p-2}\frac{\partial w}{\partial \xi}\right) - b(t)w^q, (t>0, x\in R^N), s = \frac{pN}{p-1} \qquad (6)$$
$$u(0,x) = w(0,\varphi|x|) = u_0(x) \ge 0, x\in R^N$$

Bu masalaning aniq yechimi quyidagi ko‘rinishda topilgan:

$$w(t,\xi) = a(t)(f(t) - \xi^{\gamma})_+^{\gamma_1} \qquad (7)$$

bu yerda $\gamma = p/(p-1),\ \gamma_1 = (p-1)/(k(p-2)+m+n-1), n_+ = \max(0,n)$

$$a(t) = \left[c + (k(p-2)+n+m-1)(\gamma\gamma_1)^{p\text{-}1}(\gamma\gamma_1+N)t\right]^{-\frac{1}{k(p-2)+m+n-1}} =$$

$$= \left[c + \left(\frac{p}{k(p-2)+n+m-1}\right)^{p-1}\left(p + (k(p-2)+n+m-1)Nt\right)\right]^{-\frac{1}{k(p-2)+m+n-1}}$$

$$f(t) = \left[c + \left(\frac{p}{k(p-2)+n+m-1}\right)^{p\text{-}1}\left(p + (k(p-2)+m+n-1)\right)Nt\right]^{\left(\frac{p}{k(p-2)+m+n-1}\right)^{p-1}\left(p+(k(p-2)+m+n-1)\right)N} [f_0 +$$
$$+ \int_0^t b_2(y)e^{\int b_1(y)dy}dy]$$

Yechimlarni taqqoslash teoremasi asosida quyidagi teorema isbotlangan.

1 teorema. (6) masalada $p-1>0,\ k(p-2)+n+m-1>0$ $q=\dfrac{p-[k(p-2)+n+m-1]}{p-1}, u_0(x)\le w(0,x), x\in R^N$ shartlar bajarilsin, u holda (6) masala uchun $Q=\{(t,x): t>0, x\in R^N\}$ sohada quyidagi baho

$$u(t,x)\le w(t,\xi)$$

va populyatsiya tarqalish tezligining chekliligi hodisasi o‘rinli bo‘ladi.
Bu yerda
$w(t,\xi)=a(t)(f(t)-\xi^{\gamma})_+^{\gamma_1}, \gamma=p/(p-1),\ \gamma_1=(p-1)/(k(p-2)+m+n-1)$
$n_+=\max(0,n)$ va $a(t),\ f(t)$ funksiyalar yuqorida aniqlangan.

2 teorema. (6) masalada $p-1>0,\ k(p-2)+n+m-1>0$ $q=\dfrac{p-[k(p-2)+n+m-1]}{p-1}$, $u_0(x)\le w(0,\xi), \xi\in R_+,\ 0<f(t)<\infty, t>0$ shartlar bajarilsin, u holda (6) masalaning yechimi uchun $Q=\{(t,x): t>0, x\in R^N\}$ sohada quyidagi baho o‘rinli bo‘ladi:

$$u(t,x)\le w(t,\xi).$$

Unda (6) masala uchun fazoviy lokallashish hodisasi o‘rinli.
Bu yerda
$w(t,\xi)=a(t)(f(t)-\xi^{\gamma})_+^{\gamma_1},\ \gamma=p/(p-1),\ \gamma_1=(p-1)/(\mathrm{k}(p-2)+n+m-1),$
$a(t),\ f(t)$ funksiyalar yuqorida aniqlangan.

Tez diffuziya holi: $k(p-2)+m+n-1<0$.

3 teorema. (6) masalada $q=\dfrac{p-[k(p-2)+n+m-1]}{p-1},\ u_0(x)\le w(0,x),\ x\in R^N$ bo‘lsin, unda masalaning yechimi uchun

$$u(t,x)\le w(t,\xi),\ \xi\in R,\ t>0$$

baholash o‘rinli bo‘ladi.
Bu yerda
$w(t,\xi)=a(t)(f(t)+\xi^{\gamma})^{\gamma_1},\ \gamma=p/(p-1),\ \gamma_1=(p-1)/(\mathrm{k}(p-2)+n+m-1)$
$a(t),\ f(t)$ funksiyalar yuqorida aniqlangan.

2.2-paragrafda $w=v^{\frac{1}{1-n}},\ 0<n<1$ almashtirish yordamida nodivivergent (1) tenglama divergent holiga keltirilgan va (6) masala yechimining xossalari tadqiq qilingan. Quyidagi teoremalar isbotlangan.

4 teorema. (6)-masalada $k_1(p-2)+m_1+m_2-1>0, p>1$ $u_0(x)\le v(0,x),\ x\in R^N,\ q_1=\dfrac{p-[k_1(p-2)+m_1+m_2-1]}{p-1}$ shartlar bajarilsin, u holda ko‘rilayotgan masala uchun populyatsiya tarqalish tezligining chekliligi hodisasi o‘rinli bo‘ladi.
Bu yerda
$v(\tau,r)=a_1(\tau)(f_1(\tau)-r^{\gamma})_+^{\gamma_1},\ \gamma=p/(p-1),\ \gamma_1=(p-1)/(\mathrm{k}_1(p-2)+m_1+m_2-1)$
va

$$a_1(\tau)=\left[c+(k_1(p-2)+m_1+m_2-1)(\gamma\gamma_1)^{p\text{-}1}(\gamma\gamma_1+N)\tau\right]^{-\frac{1}{k_1(p-2)+m_1+m_2-1}}=$$

$$=\left[c+\left(\frac{p}{k_1(p-2)+m_1+m_2-1}\right)^{p-1}\left(p+(k_1(p-2)+m_1+m_2-1)N\tau\right)\right]^{-\frac{1}{k_1(p-2)+m_1+m_2-1}}$$

$$f_1(\tau)=\left[c+\left(\frac{p}{k_1(p-2)+m_1+m_2-1}\right)^{p\text{-}1}\left(p+(k_1(p-2)+m_1+m_2-1)\right)Nt\right]^{\left(\frac{p}{k_1(p-2)+m_1+m_2-1}\right)^{p-1}\left(p+(k_1(p-2)+m_1+m_2-1)\right)N}[f_0+$$

$$+\int_0^t b_2(y)e^{\int b_1(y)dy}dy]$$

2.3-paragrafda diffuziya koeffitsiyenti vaqtga bog‘liq bo‘lgan nochiziqli muhitdagi biologik populyatsiya tenglamasi uchun quyidagi Koshi masalasi ko‘rib chiqilgan. Konvektiv ko‘chish tezligi vaqtga va populyatsiyaning yo‘qolib ketishiga yoki populyatsiya o‘sishiga bog‘liq bo‘lib, uning quvvati populyatsiya zichligi qiymatlariga va vaqtga bog‘liqdir:

$$\frac{\partial u}{\partial t}=\nabla\left(u^{m-1}\left|\nabla u^k\right|^{p-2}\nabla u\right)+div(v(t)u)+\gamma(t)u+\varepsilon b(t)u^q \qquad (8)$$
$$u(0,x)=u_0(x),\ x\in R^N$$

Quyidagi teoremalar isbotlangan:

5 teorema. Agar $q>1,\ k(p-2)+m-1>0,\ u_0(x)\le z_1(0,r)$ shartlar o‘rinli bo‘lsa, unda (8) masalaning umumlashgan yechimi uchun $Q=\{(t,x):t>0,x\in R^N\}$ sohada $u(\tau,x)\le z_1(\tau,r)$ baho o‘rinli bo‘ladi.

Bunda

$$z_1(\tau,r)=a_2(\tau)(f_2(\tau)-r^{p/(p-1)})_+^{(p-1)/(k(p-2)+m-1)}$$
$$\frac{da_2}{d\tau}+\gamma\gamma_1[(\gamma\gamma_1+N)]a^{k(p-2)+m-1}\le 0,$$
$$\gamma\gamma_1a_2(\tau)\frac{df_2}{d\tau}+\varepsilon b_1(\tau)a^q-(\gamma\gamma_1)^2a^{k(p-2)+m-1}f_2(\tau)\le 0$$
$$\tau(t)=\int_0^t\left[\exp\left(k(p-2)+m-1\right)\int_0^\eta\gamma(y)dyd\eta\right]$$

6 teorema. Agar $0<q<1,\ u_0(x)\le w_0^{1-q},x\in R^N$ shartlar bajarilsa, u holda

$$u(t,x)\le\int_0^t e^{b(y)dy}\left(w_0^{1-q}-(1-q)\int_0^\tau f_1(y)dy\right)_+^{1/(1-q)}$$

populyatsiyaning yo‘q bo‘lish hodisasi ro‘y beradi.

Ya’ni $u(t,x)\equiv 0,\ x\in R^N,\ \tau\ge T_0<\infty$

Bu yerda $\tau(t)=\int_0^t e^{b(y)dy}$

2.4-paragrafda populyatsiya manbai va populyatsiya yutilishi holidagi nochiziqli muhitda biologik populyatsiyaning nochiziqli diffuziya jarayonini sonli modellashtirish tadqiq qilingan. Tajriba o‘tkazish uchun sonli sxema va algoritm ishlab chiqildi. Hisoblash sxemalari sifatida t va x bo‘yicha

$\bar{\omega}_h = \{x_i = ih,\quad h>0,\quad i=0,1,...,n_1,\quad hn_1 = b\}$ ва $\bar{\omega}_\tau = \{t_j = j\tau,\quad \tau>0,\quad j=0,1,...,m_1,\quad \tau m_1 = T\}$,

$$\begin{cases} \dfrac{y_i^{j+1}-y_i^j}{\tau} = \dfrac{\left(y_{i+1,j}\right)^n}{h^2}\left[a_{i+1}\left(y^j\right)\left(y_{i+1}^{j+1}-y_i^{j+1}\right)-a_i\left(y^j\right)\left(y_i^{j+1}-y_{i-1}^{j+1}\right)-\left(y_i^j\right)^q\right] \\ \qquad i=1,2,...,n-1;\qquad \mathrm{j}=0,1,...,m_1-1 \\ y_i^0 = u_0\left(x_i\right),\qquad i=0,1,...,n_1 \\ y_0^j = \phi_1\left(\tau_j\right),\qquad j=1,2,...,m_1 \\ y_n^j = \phi_2\left(\tau_j\right),\qquad j=1,2,...,m_1 \end{cases}$$

ifodadan foydalanildi, bu yerda a_{i+1} va a_i quyidagi tarzda tanlangan:

$$a_{i+1}(y^j) = \frac{1}{2}\left[\left(y_i^j\right)^{m-1}\left|\frac{(y_{i+1}^j)^k-(y_i^j)^k}{h}\right|^{p-2}+\left(y_{i+1}^j\right)^{m-1}\left|\frac{(y_i^j)^k-(y_{i-1}^j)^k}{h}\right|^{p-2}\right]$$

$$a_i(y^j) = \frac{1}{2}\left[\left(y_{i-1}^j\right)^{m-1}\left|\frac{(y_i^j)^k-(y_{i-1}^j)^k}{h}\right|^{p-2}+\left(y_i^j\right)^{m-1}\left|\frac{(y_{i-1}^j)^k-(y_{i-2}^j)^k}{h}\right|^{p-2}\right]$$

Uning yechimini topish uchun iteratsiya usulidan foydalaniladi. Iteratsion jarayon quyidagi tarzda quriladi:

$$\frac{\overset{s+1}{y_i^{j+1}}-y_i^j}{\tau} = \frac{\left(y_{i+1,j}\right)^n}{h^2}\left[a_{i+1}\left(\overset{s}{y^j}\right)\left(\overset{s+1}{y_{i+1}^j}-\overset{s+1}{y_i^j}\right)-a_i\left(\overset{s}{y^j}\right)\left(\overset{s+1}{y_i^j}-\overset{s+1}{y_{i-1}^j}\right)\right]-\left(\overset{s}{y_i^j}\right)^q \qquad (9)$$

$\overset{(s+1)}{y}{}^{j+1}$ funksiyalarga nisbatan (9) ayirmali sxema chiziqli bo‘ladi. Boshlang‘ich iteratsiya sifatida vaqt bo‘yicha avvalgi qadamdagi y olinadi: $\overset{(0)}{y}{}^{j+1} = y^j$. Iteratsiya yaqinlashishi uchun $\max\limits_{0\le i\le n}\left|\overset{s+1}{y}_i-\overset{s}{y}_i\right|<\varepsilon$ shartning bajarilishi talab qilinadi.

2.5-paragrafda Python 3 muhitida masalalarni hal qilish uchun sonli sxemalar, algoritmlar va dasturlar majmui ishlab chiqilgan, yechimlarning olingan baholari asosidagi natijalar tahlili amalga oshirilgan.



а) $t=0$



б) $t=0$



а) $t=2$



б) $t=2$

Quyidagi qiymatlar uchun sonli natijalar vizual shaklda keltirilgan:

а) $k = 1.1,\ p = 3.3,\ m = 1.1,\ n = 1.1,\ 0<q<1,\ \varepsilon=-1$

б) $k = 1.1,\ p = 3.3,\ m = 1.1,\ n = 1.1,\ 0<q<1,\ \varepsilon=+1$

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zgaruvchan zichlikka ega bo‘lgan biologik populyatsiyaning nochiziqli masalasini matematik modellashtirish”** deb nomlangan bo‘lib, unda ko‘rib chiqilayotgan (10) masalaning Fujita turidagi global yechimga ega bo‘lish sharti topilgan va $p>n+1$ holida erkin chegara hamda yechim baholangan.

$$Lu \equiv -\frac{\partial u}{\partial t} + u^n \nabla\left(|x|^l u^{m-1} \left|\nabla u^k\right|^{p-2} \nabla u\right) + \gamma(t)u - b(t)u^q = 0, \tag{10}$$

$$u(0,x) = u_0(x),\ x \in R^N \tag{11}$$

Yechim lokalizatsiyasi, global yechimga ega bo‘lish shartlari, muhit parametrlarining qiymati va yutilish $b(t)u^q$ quvvatiga bog‘liq holda topilgan. Kritik holat $k(p-2)+m+n-1=0$ va ikki karra kritik holat $k(p-2)+m+n-1=0,\ p=l$ ko‘rib chiqilgan. Yechimlarning quyidagi xossalari aniqlangan: tarqalishning inersion chekli tezligi, populyatsiya tarqalishining fazoviy lokalizatsiyasi effekti, populyatsiya ko‘payishining chekli vaqtda mavjud bo‘lishi effekti. $\gamma(t), b(t)$ koeffitsiyentlarning keng toifasi uchun aniq yechim topilgan. Sonli sxemalar, sonli yechish usuli, algoritm va dasturiy kompleks ishlab chiqilgan.

Quyidagi teoremalar isbotlangan:

7 teorema. Agar $k(p-2)+m+n-1>0,\ p>l$

$b_0(\tau)[\tilde{u}(\tau)]^{q-(k(p-2)+m+n)}\tau_1(\tau) < s/p, T \ge 0, \tau > 0 \quad u_0(x) \le u_+(0,x),\ x \in R^N$ shartlar bajarilsa, unda (10)-(11) Koshi masalasining global yechimi mavjud, uning uchun $Q = \{(t,x): t > 0, x \in R^N\}$ sohada $u(t,x) \le u_+(t,x)$ tengsizlik va populyatsiya fronti uchun $|x| \le (\frac{a}{b})^{(p-1)/p} p_1 [\tau_1(t)]^{1/(p-l)},\ t > 0$ baho o‘rinli bo‘ladi.

Bu yerda $\tau_1(t) = \int_0^t \left[\exp(m + k(p-2) + n - 1) \int_0^\eta \gamma(y)dy \ d\eta \right], \quad \xi = \int_0^t v(y)dy - x$

Kritik holat.

$k(p-2) + m + n - 1 = 0,\ p > l$ holatni kritik holat deb ataymiz. Mazkur holatda (10) masala yechimining xatti-harakati o‘zgaradi, yanada aniqroq quyidagilarni aytish mumkin:

8 teorema. Agar quyidagi shartlar $k(p-2) + m + n - 1 = 0,\ p > l$

$b_0(\tau)[\tilde{u}(\tau)]^{q-1}(T + t) < N/(p-l), T \ge 0, t > 0 \qquad u_0(x) \le u_+(0,x),\ x \in R^N$

bajarilsa, (10)-(11) Koshi masalasi uchun global yechim mavjud va yechim uchun Q\{0} sohada quyidagi baho o‘rinli:

$$u(t,x) \le u_+(t,x) = \bar{u}(t)\tilde{u}(\tau)\, \bar{f}(\xi),\ \ \xi = \varphi(|x|) / (T + \tau_1(t))^{1/p}.$$

9 teorema. Faraz qilaylik, $k(p-2) + m + n > 1,\ p > l,\ q = 1,\ \tau_1(\infty) < +\infty$ $u_0(x) \le z_1(0,x),\ x \in R^N$ hartlar o‘rinli bo‘lsin, unda (10)-(11) masalaning yechimi fazoviy lokalizatsiya xossasiga ega. Erkin chegara uchun quyidagi baho o‘rinli:

$$|x| \le (a/b_1)^{(p-1)/p}[\tau_1(t)]^{1/(p+k(p-2)+m+n-1)s},\ x \in R^N, t > 0.$$

Bu yerda $z_1(t,x) = \bar{u}(t)\tilde{u}(\tau)[\tau_1(\tau)]^{-1/p}(a - b_1|\eta|^{p/(p-1)})_+^{(p-1)/(k(p-2)+m+n-1)}$

10 teorema. Agar

$k(p-2) + m + n - 1 = 0,\ p > l,\ b_0(\tau) = 1,\ u_0(x) \le z_+(0,x),\ x \in R^N \setminus \{0\}$,

$\beta \ge (k(p-2) + m + n) + (1-q)(p-l)/N,\ q < 1$ shartlar o‘rinli bo‘lsa, (10)-(11) Koshi masalasi uchun global yechim mavjud va Q\{0} sohada quyidagi baho o‘rinli:

$$u(t,x) \le z_+(t,x) = \bar{u}(t)\tilde{u}(\tau)\exp\left(-\frac{(p-1)\eta^{p/(p-1)}}{k^{(p-2)/(p-1)}p^{1/(q-1)}} \right), \eta = \varphi(|x|)/(T + t)^{1/p}$$

$\tilde{u}(\tau) = (T + (q-1)\tau)^{-1/p},\ \eta = \varphi[T + t]^{-1/p}$

Ikki karra kritik hol.

$k(p-2) + m + n - 1 = 0,\ p = l$ holatni ikki karra kritik hol va singulyar hol deb ataymiz.

11 teorema. Agar $k(p-2) + m + n - 1 = 0,\ p = l,\ b_0(\tau) = 1,$ $u_0(x) \le z_1(0,x),\ x \in R^N \setminus \{0\}, q \ge 1 + p$ shartlar o‘rinli bo‘lsa, (10)-(11) Koshi masalasi uchun global yechim mavjud va Q\{0} sohada quyidagi baho o‘rinli:

$$u(t,x) \le z_1(t,x) = \bar{u}(t)\tilde{u}(\tau)[\tau_1(\tau)]^{-1/p} \exp\left(-\frac{(p-1)\eta^{p/(p-1)}}{k^{(p-2)/(p-1)} p^{1/(p-1)}} \right),$$

$$\eta = \ln(|x|)/(T+t)^{1/p},\ \bar{u}(t) = \exp(\int_0^t b(y)dy),\ \tilde{u}(\tau) = (T + (\beta-1)\int_0^\tau (b_1(y)dy)^{-1/(\beta-1)},\ T \ge 0$$

3.4-paragrafda sonli sxemalar va yechish usullari hamda sonli eksperiment natijalarining tahlili keltirilgan. Differensial tenglamalar sistemasini yechish uchun iteratsion usuldan foydalanilgan. Barcha holatlarda iteratsiyalar soni birinchi yarim qatlamda ikkidan va ikkinchi yarim qatlamda birdan oshmadi, bu taklif etilgan usulning samaradolrligini tasdiqlamoqda. Grafiklardan ko‘rinib turganidek, muhitning bir jinsli emasligini xarakterlovchi *l* parametrining qiymati ortishi bilan ta’sir sohasi qisqaradi.



_l_ parametrning turli qiymatlari uchun bo‘lgan holatda populyatsiyaning yo‘qolib ketish jarayonining o‘zgarish grafigi: $n=1.1, m=1.1, k=1.1, p=3, eps=10^{-3}$ **.**

Hisoblash eksperimentining natijalari, barcha iteratsion usullar va yaratilgan sxemalar mos kelishini ko‘rsatmoqda. Taklif etilgan boshlang‘ich approksimatsiya tufayli sonli natijalarning tez mos kelishiga erishildi. Taklif etilgan yondashuvning barcha holatlarida iteratsiyalar soni aniqlikda o‘rtacha 3 dan oshmaydi. Sonli eksperiment natijalari yechimlarning yaxshi boshlang‘ich approksimatsiyasi hisobiga ko‘rib chiqilayotgan masalani yechish uchun oshkormas sxemalardan foydalanish samaraliligini ko‘rsatdi.

XULOSA

Dissertatsiya nochiziqli parchalash algoritmi va etalon tenglamalar usullari yordamida biologik populyatsiya masalalarini modellashtirishni tadqiq qilishdan iborat. Mazkur ishda koʻrib chiqilayotgan masalada quyidagi nochiziqli effektlar namoyon boʻlishi kuzatilishi koʻrsatib berilgan: populyastiya koʻpayishi chekli tezligining inersion effekti, populyatsion chaqnashning fazoviy lokalizatsiyasi effekti va kuchli yutilishga ega boʻlgan muhitda populyatsiya chaqnashning chekli vaqtda mavjudligi effekti. Shuningdek, fizik ma’noga ega boʻlgan umumlashgan yechim bahosi olingan.

1. Biologik populyatsiya jarayonini va populyatsiya tarqalishining tezligining chekliligi, kuchli yutilishi ta’sirida fazoviy lokallashishi aniqlangan, ikki karrali nochiziqli parabolik tenglama bilan tasvirlangan masala uchun Fujita turidagi global yechim mavjudligi isbotlangan.
2. Biologik populyatsiya jarayonining matematik modellarining sifat xossalari oʻrganilgan, umumlashgan aniq yechimlar, yechim va front uchun baholar olingan.
3. Nodivergent koʻrinishidagi biologik populyatsiya masalasi uchun Fujita turining global yechimi mavjudligi haqidagi teorema isbotlangan, avtomodel tahlil asosida masalani hal qilishning sifat xossalari oʻrganildi, umumlashgan xususiy yechim topilgan.
4. Biologik populyatsiya masalasi konvektiv koʻchish ta’sirida chiziqli manba va nochiziqli kuchli yutilish jarayonlarining matematik modellari tadqiq qilindi. Yechim baholariga asoslanib, yuqoridagi yangi effektlarning haqiqiyligi koʻrsatildi.
5. Ikki karra nochiziqli oʻzgaruvchan zichlikga ega nodivergent parabolik tenglama bilan tasvirlangan biologik populyatsiya jarayonining matematik modellarining sifat xossalari tadqiq qilingan.
6. Kuchli yutilish va zichlik ta’siri ostida buziladigan nodivergent parabolik tenglamalar bilan tasvirlangan biologik populyatsiya hamda viruslarning tarqalishi jarayonlari uchun yangi nochiziqli effektlar aniqlandi, masalaning aniq yechimlari va yechim baholari olindi.
7. Koʻrib chiqilayotgan nochiziqli biologik populyatsiya masalalarini sonli yechishda boshlangʻich iteratsiyani topish muammosi hal etilgan va taklif qilingan boshlangʻich iteratsiyalar iteratsion jarayonni tez yaqinlashishiga olib kelganligi hisoblash eksperimenti natijalari orqali oʻz tasdigʻini topgan.
8. Matematik modelda ishtirok etgan sonli parametrlarning qiymatlariga qarab, yechimlarning sifat xossalarini oʻrganishda sekin, tez, kritik va singulyar hollar uchun yechim turli xarakterga ega boʻlishi isbotlangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM.01.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
НАТЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

НАТЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

САЙФУЛЛАЕВА МАФТУХА ЗАФРУЛЛАЕВНА

ЧИСЛЕННОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЗАДАЧ БИОЛОГИЧЕСКОЙ ПОПУЛЯЦИИ ОПИСАННОЙ НЕЛИНЕЙНЫМ ПАРАБОЛИЧЕСКИМ УРАВНЕНИЕМ В НЕДИВЕРГЕНТНОЙ ФОРМЕ

**05.01.07 – Математическое моделирование. Численные методы
и комплексы программ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

ТАШКЕНТ – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2018.1.PhD/T589.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирза Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.ik-fizmat@nuu.uz) и на Информационно-образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Арипов Мерсаид Мирсиддикович** доктор физико-математических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Ганихўжаев Расул Набиевич** доктор физико-математических наук, профессор
	Мухамедиева Дилдора Кабиловна доктор технических наук
Ведущая организация:	**Самаркандский государственный университет**

Защита диссертации состоится «___» _______ 2023 г. в ___ часов на заседании научного совета DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.:(+99871) 227-12-24, факс: (99871) 246-53-21; e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована №___). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «__» _________ 2023 года.
(протокол рассылки №_________ от «__» _________ 2023 года.)

Р.Д.Алоев
Зам. председателя научного совета по
присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

З.Р.Рахмонов
Ученый секретарь научного совета по присуждению
ученых степеней, д.ф.-м.н.

Б.Ф.Абдурахимов
Председатель научного семинара при научном совете
по присуждению ученых
степеней, д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире проблемы, возникающие в результате многочисленных научных и практических исследований, проводимых в глобальном масштабе, сводятся к исследованию нелинейных математических моделей различных процессов. Большинство таких моделей являются нелинейными дифференциальными уравнениями параболического типа недвиргентного вида. Разработка нелинейных моделей, описывающие процессы, в широком диапазоне значений числовых параметров, при исследовании процессов биологической популяции, является объектом исследований в таких областях, как прикладная математика и математическое моделирование. Исследование качественных свойств нелинейных математических моделей, создание схем численного решения, методов решения, алгоритмов и программного обеспечения остается одной из важных задач научных исследований.

В настоящее время актуально изучать различные новые свойства математических моделей, описываемых нелинейными недивергентными параболическими уравнениями, конечная скорость распространения популяции, пространственная локализация, вымирание популяции и другие новые качественные свойства, под влиянием конвективного переноса, скорость которого зависит от времени, источника, поглощения, переменной плотности. В нелинейных задачах биологической популяции, из-за вырождения параболических уравнений, представляющих их, разработка компьютеризированной системы, определяющей динамическое изменение решений, требует особого подхода к численному решению и является основной целью научных исследований.

В Республике Узбекистан наибольшее внимание уделяется современным направлениям, таких как разработка численных и аналитических методов решения задач в областях математической физики и механики, которые имеют научное и практическое применение в фундаментальных науках. В частности, были достигнуты определенные результаты в математическом моделировании нелинейных процессов биологической популяции, описываемых параболическими уравнениями недивергентного вида и разработке эффективных методов приближенного решения. Проведение научных исследований на уровне международных стандартов по приоритетным направлениям «Функциональный анализ, алгебра, дифференциальные уравнения, математическая физика, математическое моделирование, вычислительная математика и дискретная математика, теория вероятностей и математическая статистика», является одной из основных задач Института математики им. В.И.Романовского при Академии наук Республики Узбекистан[2]. Для обеспечения ее реализации принятого решения важное значение имеют исследования, проводимые в области научных исследований

[2] Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-4708 от 7 мая 2020 г. «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики».

в республике, в частности автоматизация технологических процессов и использование численных методов.

Настоящее диссертационное исследование направлено на определенной приоритетов реформирования системы высшего образования в Республике Узбекистан, поднятие процесса подготовки высококвалифицированных кадров с независимым мышлением, современными знаниями и высокими моральными качествами на качественно новый уровень, модернизацию высшего образования, развитие социальной сферы и экономических сетей на основе передовых образовательных технологий, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», №УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Постановлениях Президента Республики Узбекистан №ПП-2789 от 17 февраля 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности», №ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», №ПП-5847 от 8 октября 2019 года "Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года" в определенной степени послужит реализации поставленных вопросов, а также поручений, данных президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиеевым на встреча с представителями сфер образования и науки 24 мая 2019 года в Национальном университете Узбекистана.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан IV. "Математика, механика и информатика".

